

## The Use of Didactic Games Technology in Pedagogy Instruction

Olimova Dono Shakirovna<sup>1</sup>, Qosimov Saidkamol Quدرات O'g'li<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup> Urgench State University, Uzbekistan

### Article Info

Received: 23 March 2026

Revised: 29 March 2026

Accepted: 5 April 2026

Online Version: 12 April  
2026

### Corresponding Author:

Olimova Dono Shakirovna,  
PhD in Pedagogical Sciences,  
Associate Professor, Urgench  
State University of Medicine,  
Uzbekistan.  
Email: [olimovadono@gmail.com](mailto:olimovadono@gmail.com)

**Abstract.** This study aims to analyze the use of didactic game technology in pedagogy lessons and its impact on improving the quality and effectiveness of the learning process. In modern education, interactive and innovative methods are essential to enhance students' interest, active participation, and independent thinking skills. Didactic games, as an instructional approach, have proven effective in creating an engaging, interactive, and meaningful learning environment. This study employs a descriptive qualitative approach, with data collected through observation, interviews, and documentation. The results indicate that the use of didactic games increases learning motivation, strengthens students' understanding of the material, and develops critical thinking, creativity, and collaboration skills. Furthermore, it enhances effective interaction between teachers and students. Therefore, it can be concluded that didactic game technology plays a significant role in improving the quality of pedagogy learning.

**Keywords:** Didactic games, pedagogy, interactive methods, teaching technology, innovative education, educational process, creative thinking, efficiency, independent education, communication culture.

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot pedagogika darslarida didaktik o'yinlar texnologiyasidan foydalanish hamda uning ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilimga qiziqishini oshirish, faol ishtirokini ta'minlash va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun interfaol va innovatsion metodlar muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quv jarayonini qiziqarli, interfaol va mazmunli tashkil etishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot sifat (kvalitativ) tavsifiy yondashuv asosida olib borildi. Ma'lumotlar kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish orqali yig'ildi. Natijalar didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarni mustahkamlash hamda tanqidiy, ijodiy va jamoaviy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot shakllanishiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Didaktik o'yinlar, pedagogika, interfaol metodlar, o'qitish texnologiyasi, innovatsion ta'lim, o'quv jarayoni, ijodiy fikrlash, samaradorlik, mustaqil ta'lim, muloqot madaniyati.



© 2026 by the author(s)

This article is an open-access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International

(CC BY SA) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/>).

---

Journal Homepage	<a href="https://ejournal.aripendis.com/edulogia">https://ejournal.aripendis.com/edulogia</a>
How to cite:	Shakirovna, O. D., & O'g'li, Q. S. Q. (2026). The Use of Didactic Games Technology in Pedagogy Instruction. <i>Edulogia: Jurnal Pendidikan dan Keislaman</i> , 1(3), 157-161.
Published by:	Yayasan Pendidikan Islam Bintang Nusantara

---

## INTRODUCTION

*“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni –  
bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!”*

— Shavkat Mirziyoyev<sup>1</sup>

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Shu jihatdan olib qaraganda, pedagogika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni faol o‘qitish jarayoniga jalb etish va darslarni qiziqarli qilish uchun qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv an’anaviy ta’lim usullariga qaraganda interfaol va ijodiy yondashuvni talab etadi. O‘yinlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, mustaqil muammolarni hal qilish ko‘nikmalari hamda jamoaviy ishlash malakalari rivojlantiriladi<sup>2</sup>.

Ushbu maqolada pedagogika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish texnologiyasi, ularning turlari, o‘quv jarayonida qo‘llash usullari va samaradorligi tahlil etiladi. Shuningdek, didaktik o‘yinlarning ta’lim sifati va o‘quv jarayonining natijadorligiga ta’siri haqida fikr yuritiladi.

## RESEARCH METHOD

Mazkur tadqiqot sifat (kvalitativ) tavsifiy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotda pedagogika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqot subyektlari sifatida o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirok etdi. Ma’lumotlar kuzatuv, suhbat (intervyu) va hujjatlar tahlili orqali yig‘ildi.

Kuzatuv jarayonida didaktik o‘yinlar asosida tashkil etilgan darslar, jumladan rolli o‘yinlar, savol-javob o‘yinlari va muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari o‘rganildi. Suhbat orqali o‘qituvchi va o‘quvchilarning ushbu metodga bo‘lgan munosabati va tajribasi aniqlashtirildi. Hujjatlar tahlili esa o‘quv materiallari, o‘quvchilar ishlari va dars ishlanmalari asosida amalga oshirildi.

Ma’lumotlar reduksiya, tizimlashtirish va xulosa chiqarish bosqichlari orqali tahlil qilindi. Natijalarning ishonchliligini ta’minlash uchun triangulyatsiya usuli qo‘llanildi. Tadqiqot didaktik o‘yinlarning o‘quvchilarning motivatsiyasi, faolligi va o‘zlashtirish darajasiga ta’sirini aniqlashga qaratildi.

## RESULTS AND DISCUSSION

Zamonaviy ta’lim tizimida samaradorlikni ta’minlash uchun o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada faollashtirib, o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash imkonini yaratadi. Ushbu maqola pedagogika

---

<sup>1</sup> Shukurov Sh. Didaktik o‘yinlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2021, №2.

<sup>2</sup> Azizxo‘jayev A. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2003.

daralarida didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyalarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan<sup>3</sup>.

Maktab yillari bolalar hayotida muhim o'rin egallaydi, chunki aynan shu davrda ularning savodxonligi shakllanadi. Shu sababli bolalarga tushunarli bo'lgan mashg'ulotlardan hamda qiziqarli zamonaviy usullardan foydalanish muhimdir. Ushbu bosqichda bolaning nafaqat savodi chiqadi, balki dunyoqarashi kengayib, tafakkur doirasi ham rivojlanadi. O'yinlar orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlab, yangi ma'lumotlarni oson o'zlashtiradilar. Didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish bilan birga, bilish jarayonining samarali tashkil etilishiga ham xizmat qiladi. Ular boshlang'ich ta'lim bosqichida ham, undan keyingi ta'lim darajalarida ham o'quvchilarning bilimini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, darslarni o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilar uchun didaktik o'yinlar samarali usul bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini soddalashtirish, o'quvchilarning ishtirokini faollashtirish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish uchun maxsus tashkil etilgan faoliyat shakli hisoblanadi. Ushbu o'yinlar quyidagi jihatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi<sup>4</sup>:

O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi;

O'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlarni samarali qo'llash uchun ularni mavzu va ta'lim maqsadlariga mos ravishda tanlash muhimdir. O'yin qoidalarini aniq va tushunarli tarzda ishlab chiqish hamda dars jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish talab etiladi. O'yinlardan darsning kirish, asosiy va yakuniy bosqichlarida foydalanish orqali bilimlarni samarali o'zlashtirish va nazorat qilish mumkin.

Didaktik o'yinlarning turli shakllari mavjud<sup>5</sup>:

Jadval va kartochka o'yinlari – mavzuga oid tushunchalarni chuqur o'zlashtirish uchun qo'llanadi;

Rolli o'yinlar – amaliy vaziyatlarni modellashtirish va muammolarni hal qilish imkonini beradi;

Elektron o'yin texnologiyalari – zamonaviy kompyuter va multimedia dasturlaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalari tatbiq etilgan darslar quyidagi natijalarga olib keladi<sup>6</sup>:

O'quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshadi;

Ta'lim materiali tez va samarali o'zlashtiriladi;

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv va samarali muloqot shakllanadi.

Didaktik o'yinlardan foydalanish pedagogika darslarining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimida bunday texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni o'qituvchilar tomonidan tizimli ravishda qo'llash zarur. Bu nafaqat bilim berish jarayonini samarali tashkil etadi, balki o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar – bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradigan maxsus o'quv faoliyati bo'lib, ular dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu usul o'quvchilarning o'zlashtirish

<sup>3</sup> Yo'ldoshev M., Abduqodirov A. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

<sup>4</sup> Xodjayev N. Didaktik o'yinlar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2020, №3.

<sup>5</sup> Jalolov J. Interfaol o'qitish metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.

<sup>6</sup> Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1982.

darajasini oshirishga xizmat qilib, ularning mantiqiy fikrlashi, muloqot qilish ko'nikmalari va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarning faolligini oshiradi – an'anaviy dars usullariga nisbatan o'yinli yondashuv ularning darsga jalb etilish darajasini yuqori ko'taradi.

Bilimni tez va samarali o'zlashtirishga ko'maklashadi – interfaol metod sifatida o'yinlar axborotni yaxshiroq tushunish va mustahkamlashga yordam beradi.

Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi – o'quvchilar o'yin davomida fikr almashib, muammolarni birgalikda hal qilishni o'rganadilar.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi – mustaqil qaror qabul qilish, vaziyatlarni tahlil qilish hamda muammolarga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Pedagogika darslarida didaktik o'yinlarni turli usullar orqali tatbiq etish mumkin bo'lib, ular darsning maqsadi va mazmuniga qarab tanlanadi. Quyida samarali usullarning ayrimlari keltirilgan<sup>7</sup>:

Rolli o'yinlar – O'qituvchi va o'quvchilar turli rollarni ijro etib, pedagogik muammolarga yechim izlaydilar. Masalan, "Ideal o'qituvchi" yoki "Darsni qanday tashkil qilish kerak?" kabi o'yinlar o'quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Didaktik savol-javob o'yinlari – "Kim tez va aniq javob beradi?" yoki "Bilim karvoni" kabi o'yinlar orqali o'quvchilar mavzuga oid bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish o'yinlari – Ushbu usulda o'quvchilarga pedagogik vaziyatlar berilib, ulardan eng samarali yechimni topish talab etiladi. Masalan, sinfda intizomni saqlash bo'yicha turli holatlar tahlil qilinib, ularning eng maqbul yechimlari muhokama qilinadi.

Konstruktiv o'yinlar – O'quvchilarga yangi dars ishlanmasini yaratish yoki didaktik material tayyorlash vazifasi beriladi. Bu usul ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning faoligi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori bo'ladi. Ushbu o'yinlar dars jarayonini jonli va qiziqarli qilib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashi va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar pedagogik jarayonni yanada chuqurroq tushunib, real hayotga yaqin tajribaga ega bo'ladilar. O'yin shaklida ta'lim olish hissiy jihatdan boy bo'lgani sababli, o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etishdan zavqlanadilar, natijada ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi oshadi.

Pedagogika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Bu esa kelajakdagi pedagoglarning ijodkor, faol va tashabbuskor bo'lishiga xizmat qiladi.

## CONCLUSION

Pedagogika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interfaol shaklda tashkil etishga imkon yaratadi. Bu usul o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2019.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning nafaqat intellektual rivojlanishiga, balki jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishiga ham yordam beradi. O'yin elementlarini dars jarayoniga to'g'ri tatbiq etish orqali o'qitish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Bu usul nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarni faol, izlanuvchan va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

- Shukurov Sh. Didaktik o'yinlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2021, №2.
- Azizxo'jayev A. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2003.
- Yo'ldoshev M., Abduqodirov A. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
- Xodjayev N. Didaktik o'yinlar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2020, №3.
- Jalolov J. Interfaol o'qitish metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
- Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1982.
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2019.

---

### Copyright Holder :

© Olimova Dono Shakirovna et al (2026).

### First Publication Right :

© Edulogia: Jurnal Pendidikan dan Keislaman

### This article is under:

